

## YANGI O‘ZBEKISTONDA YANGICHA HAYOT

**Asqarjonov Komronbek Asqarjon o‘g‘li**

*Samarqand Davlat Veterinariya Meditsinasi Chorvachilik va Biotexnologiyalar  
Universiteti Toshkent filiali talabasi*

**Annotatsiya:** *So‘ngi yillar mamlakatimizda deyarli barcha jabhalarda yangilanish, rivojlanish bosqichi kechmoqda desak yangilishmagan bo‘lamiz. Shunga monand ravishda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan islohotlar yaqqol namoyonidir. Ushbu maqolada shular haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *Yangi O‘zbekiston, renesans, adolatli jamiyat, yangicha dunyoqarash.*

Yangi O‘zbekiston! Naqadar jarangli va chiroyli eshitiladi. Biz yoshligimizdan O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat degan gapni eshitib kelganmiz Shukurki shunday kunlarda yashayapmiz.

O‘zbekiston 2016- yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyevning islohotlari sharofati bilan keng ko‘lamli asosiy tub o‘zgarishlar yo‘lini bosib o‘tdi. Mamlakat ichida bo‘lganiday , xorijda ham bugungi Yangi O‘zbekiston va sakkiz yil avvalgi O‘zbekiston bu o‘zining sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ikkita butkul turlicha hodisa ekanligi borasida ekspertlar fikrida hamjihatlik bor.

Yangi O‘zbekiston sharoitida yana bir muhim tamoyil shundan iboratki, natijadorlik-amalga oshirilayotgan tub islohotlarning bosh maqsadiga aylandi. Bunga erishish uchun O‘zbekiston yetakchisi tomonidan noan‘anaviy, kreativ va chuqur o‘ylangan qarorlar qabul qilinmoqda. Masalan, dunyo tajribasida kam uchraydigan o‘ziga xos boshqaruv modeli – sektorlar bo‘yicha boshqaruv tizimi xalqning hayoti, dard-u tashvishlarga yanada yaqin bo‘lish islohotlar samarasini oshirish imkonini bermoqda.

Milliy tariximizda birinchi marta mamlakatimizda kambag‘allik mavjudligi ochiq e‘lon qilinib, uni qisqartirish bo‘yicha zarur chora – tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va izchil amalga oshirilmoqda.

Aynan shu lahzadan boshlab kambag‘allikni muammosini hal qilishga majmuaviy yondashuvlarni ishlab chiqish boshlandi. Dastavval Respublikasi Mahalla va nuroniylar oilani qo‘llab quvvatlash vazirligi. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tashkil qilindi.

Yurtimizda “Obod qishloq “ “Obod mahalla “ “Besh muhim tashabbus “ “Har bir oila -tadbirkor” “ Yoshlar - kelajagimiz” kabi dasturlar, “Ayollar daftari “ “ Yoshlar daftari” “Mahallabay “ “ Xonadonbay “ ishlash usullari joriy etildi.

Bugungi kunda “ Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun “, “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak “ degan hayotbaxsh tamoyillar asosida xalq farovonligini, odamlarning turmush darajasini har tomonlama oshirish, yangi ish o‘rinlari, daromad manbalari yaratish, qishloq va shaharlarimizni obod

qilish barcha islohotlarimizning bosh maqsadini tashkil etmoqda. Fuqarolar bilan ishlash, ularning muammolarini o'rganish va hal etish maqsadida. Xalq qabulxonasi, Virtual qabulxona, turli darajadagi rahbar va mutasaddilar ishtirokida joylarda sayyora qabullar o'tkazish, Davlat xizmatlari kabi mutlaqo yangi institutional tuzilmalar tashkil etilgani va muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgani alohida qayt etish lozim.

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar sohasidagi davlat siyosati mutlaqo yangicha ma'no – mazmunga ega bo'lib, uni amalga oshirish mexanizmlari tobora takomillashib bormoqda. Ana shunday e'tibor tufayli O'zbekiston yoshlarining yangi uyushmasi – Yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi, 30-iyun Yoshlar kuni deb e'lon qilindi. Turli soha va tarmoqlarda katta natijalarga erishayotgan yoshlarimiz uchun "Mard o'g'lon" Davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali ta'sir etildi.

Yosh oilalar o'z tengdoshlari o'rtasida namuna bo'lib, ishlab chiqarish Davlat va jamiyat boshqaruvi, ilm fan, madaniyat, adabiyot va san'at sohalarida o'z iqtidorni dalil namoyon etayotgan o'g'il qizlarimizga uy – joy, yengil avtomobil sotib olishda imtiyozli kreditlar berish, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan 24 ta hujjat, jumladan, 2 ta qonun, Prezidentning 6 ta farmon va qarori, Vazirlarlar Mahkamasining 16 ta qarori qabul qilingani opa-singillarimizning bo'lgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlik ifodasidir. O'zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin – qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi.

O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin- qizlar 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi. Xotin-qizlar bilan tizimli ishlash, ularni har tomonlama qo'llab quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan tizim yaratildi. Ehtiyojmand oilalar farzandi bo'lgan qizlar oliy ta'lim muassasalarida davlat granti asosida o'qitilmoqda.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "El-yurtimiz biz boshlagan xalqchil islohotlarga bugun xayrixohlik va qat'iy ishonch bilan qarab, ularning hosili va samarasini tezroq ko'rishni istamoqda. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi", degan nom bejiz tanlanmagan. Bu nom avvalo mazkur Taraqqiyot strategiyasi – 2017 yil fevralida tasdiqlangan va keyingi besh yil ichida hayotga izchil tatbiq etilgan Harakatlar strategiyasining yangi bosqichdagi mantiqiy davomi ekanini anglatadi.

"Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili ilgari surilgan. Binobarin, Harakatlar strategiyasidagi har bir yo'nalishni taraqqiyotning yangi bosqichida mantiqiy, keng

ko‘lamli va izchil asosda rivojlantirish hamda yangi ustuvor yo‘nalishlarda muhim natijalarga erishish ko‘zda tutilmoqda.

Muhtaram prezidentimiz o‘z nutqlarida aytib o‘tganlaridek, bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummiy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida buyuk va ulug‘ ajdodlarimiz, birinchi va ikkinchi uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz, albatta. Hozirgi kunda yurtimizda yana bir muhim Uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi O‘zbekiston “ va “Uchinchi Renessans” so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish- istak, sub‘ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy- huquqiy ijtimoiy- iqtisodiy ma‘naviy – ma‘rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan ob‘ektiv zaruratdir.

Biz bu yo‘lda islohotlarimizning asosiy xarakatlantiruvchi kuchli bo‘lgan jamiyatimizning a‘zolarining bor bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarni butun azmu shijoatimizni ishga solishimiz zarur. Shundagina Yangi O‘zbekiston jaxon maydonida kuchli salohiyat munosib o‘bro‘ e‘tiborga ega bo‘lgan xar tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi. Bir so‘z bilan aytganda Yangi O‘zbekiston Yangi Hayotdir

**Xulosa:** Yangi O‘zbekiston amalga oshirilayotgan barcha islohotlar eng avvalo o‘zbek xalqi uchundir. O‘zbekistonning o‘rnini jahon miqyosida yanada oshirishdir. O‘zbek boy tarixini saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shavkat Mirziyoyev < Yangi O‘zbekiston Strategiyasi > TOSHKENT 2021
2. Yangi O‘zbekiston Mustaqillikning 30 yilligi Toshkent 2021
3. Yangi O‘zbekiston gazetasi Toshkent 2021-yil 18-avgust.